

## ERTAKTERAPIYANING JAHON TILSHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI

**Rohilabonu G'o'chchiyeva**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ertakterapiyaning jahon tilshunosligidagi o'rni va ilmiy ahamiyati yoritiladi. Ertak va terapevtik hikoyalar til, tafakkur, emotsional tajriba hamda madaniy ma'no o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochib beruvchi muhim vosita sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, ertakterapiyaning psixolingvistika, narrativ lingvistika, diskurs tahlili, lingvokulturologiya hamda bolalar nutqini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ertakterapiya faqat psixologik yoki pedagogik usul emas, balki jahon tilshunosligida nutq shakllanishi, identitet qurilishi, ma'no yaratish va madaniy kodlarni uzatish mexanizmlarini tushuntiruvchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri ekanligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** ertakterapiya, jahon tilshunosligi, narrativ, diskurs, psixolingvistika, lingvokulturologiya, bolalar nutqi, identitet.

**Kirish.** Bugungi kunda jahon ilm-fanida tilni faqat grammatik birliklar yoki aloqa vositasi sifatida emas, balki insonning ichki dunyosi, ijtimoiy tajribasi, madaniy xotirasi va identitetini shakllantiruvchi murakkab tizim sifatida o'rganish kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ertakterapiya alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ertak inson tafakkurining qadimiy, universal va ramziy shakli bo'lib, unda tilning semantik, pragmatik, emotsional va madaniy imkoniyatlari mujassam bo'ladi. Ertakterapiya esa aynan shu hikoyaviy va ramziy resurslardan foydalanib, shaxsning ichki kechinmalarini ifodalash, muammolarini til vositasida qayta ko'rish va yangi ma'no yaratish jarayonini faollashtiradi. Shu sababli bu hodisa tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada tadqiq qilinmoqda.

Ertakterapiyaning jahon tilshunosligidagi ahamiyati, avvalo, tilning narrativ tabiatini chuqurroq tushuntirishida namoyon bo'ladi. Inson ko'pincha o'z tajribasini alohida faktlar orqali emas, balki voqealar ketma-ketligi, obrazlar, qahramonlar, nizolar va yechimlar orqali anglaydi. Ya'ni shaxsiy va ijtimoiy tajriba ko'p hollarda hikoya shaklida tashkillashtiriladi. Narrativ terapiya bo'yicha ishlarda til o'zgarishning markaziy vositasi ekani, inson o'z hayoti haqidagi hikoyani qayta qurish orqali yangi pozitsiya va yangi ma'no hosil qilishi ko'rsatiladi. Bu esa tilshunoslik uchun nihoyatda muhim, chunki bunda til oddiy xabar uzatish vositasi emas, balki reallikni talqin qilish, identitetni ifodalash va subyektiv tajribani strukturalashtirish vositasi sifatida qaraladi.

**Asosiy qism.** Ertak janri o'zining qat'iy kompozitsion qurilishi bilan ajralib turadi: kirish, voqea rivoji, sinov, kurash, yechim va yakun. Bu tuzilma bolalar va kattalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u inson tafakkuridagi sabab-oqibat, vaqt ketma-ketligi va qahramonlik modeli bilan uyg'unlashadi. Tilshunoslikda narrativ qurilishning bunday aniq shakllari matn hosil qilish, diskurs tashkil etish va ma'no izchilligini ta'minlashdagi eng samarali modellar qatoriga kiradi. Tadqiqotlarda narrativ ko'nikmalar bolaning keyingi o'qib tushinishi, maktabdagi muvaffaqiyati va og'zaki nutq rivoji bilan chambarchas bog'liq ekani ko'rsatilgan. Shuning uchun ertak va hikoya bilan ishlash nafaqat estetik tarbiya, balki til rivojining fundamental mexanizmlarini faollashtiruvchi jarayon hisoblanadi. Ertakterapiyada aynan shu narrativ tuzilma shaxsning ichki holatini tushunish va qayta ifodalashga xizmat qiladi (Channell, M. 2015). Masalan, qahramonning qo'rquvi, sinovdan o'tishi, yordamchi kuchlarning paydo bo'lishi va yakuniy g'alaba modeli odamning ruhiy tajribasini simvolik

ravishda tashqi shaklga chiqaradi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan bu jarayon diskursiv rekonstruksiya sifatida qimmatli: inson o'z hissiyotini bevosita aytish o'rniga obrazli hikoya orqali ifodalaydi, bu esa ma'noni yumshatadi, kengaytiradi va ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan shaklga keltiradi. Demak, ertakterapiya til vositasida ichki tajribani tashqi nutqqa aylantirishning samarali usulidir.

Jahon tilshunosligida ertak va hikoya bilan ishlash, ayniqsa, psixolingvistika doirasida muhim o'rin tutadi. Chunki bolada nutq, tafakkur va tasavvur bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlarda hikoya tinglash, qayta hikoya qilish, voqealar o'rtasidagi bog'lanishni topish va personajlar harakatini izohlash kabi faoliyatlar lug'at boyligini kengaytirishi, grammatik qurilmani mustahkamlashi va matnli fikrlashni rivojlantirishi aniqlangan. Narrative-based language intervention (Pauls, L. J. et al. (2021) bo'yicha ishlar narrativ faoliyat semantika, sintaksis, morfologiya, pragmatika va fonologiya kabi bir necha til qatlamlarini bir paytda ishga solishini ko'rsatadi. Shu sababli ertakterapiya bolalar nutqini rivojlantirishda kuchli integrativ mexanizm sifatida baholanadi. Bolalar ertakni tinglaganida yoki qayta so'zlaganida ular nafaqat so'zlarni eslab qoladi, balki vaqt shakllari, sabab-oqibat munosabatlari, bog'lovchilar, dialog qurilishi va qahramonlar nutqidagi pragmatik farqlarni ham o'zlashtiradi. Bunda ertak strukturasi bolaga "nima bo'ldi?", "nega bo'ldi?", "keyin nima bo'ladi?" kabi savollarga javob berishga yordam beradi (Demir, Ö. E., Levine, S. C., Goldin-Meadow, S. (2013). Bu esa izchil nutq, matn mantiqi va og'zaki bayon qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar narrativ ko'nikma keyingi o'qish va yozish muvaffaqiyatining ishonchli ko'rsatkichlaridan biri ekanini qayd etadi. Shunday ekan, ertakterapiyaning amaliy qiymati faqat hissiy yengillik berish bilan cheklanmaydi, u til egallash jarayonining muhim tayanchi hamdir.

Diskurs tahlili va identitet qurilishidagi rolga ko'ra, zamonaviy jahon tilshunosligida identitet masalasi diskurs bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ya'ni inson "men kimman?" degan savolga ko'pincha tayyor, qat'iy javob bermaydi; u o'zini nutq jarayonida, hikoyalar, tavsiflar, esdaliklar va talqinlar orqali quradi. Narrative therapy va discourse analysis yo'nalishlarida identitetning til orqali shakllanishi, qayta ko'rilishi va muzokara qilinishi keng yoritilgan (Demir, Ö. E., Levine, S. C., Goldin-Meadow, S. 2013). Ertakterapiya bu jarayonda juda qulay mexanizm bo'lib xizmat qiladi, chunki unda inson o'zini qahramon, yordamchi, kuzatuvchi yoki sinovdan o'tayotgan shaxs sifatida ko'ra oladi. Bu esa identitetni qayta semantikashtirish imkonini beradi.

Masalan, o'zini doimiy ravishda "zaif" deb tasvirlaydigan bola yoki katta kishi ertak strukturasi sinovdan o'tuvchi, lekin resurs topa oladigan qahramon sifatida qayta talqin qilinishi mumkin (Channell, M. M. 2015). Shu tariqa til birliklari va hikoya modeli o'zgarishi bilan shaxsning o'z-o'zini tasvirlash usuli ham o'zgaradi. Bu hodisa tilning performativ va transformativ kuchini ko'rsatadi. Tilshunoslar uchun bu nafaqat nazariy, balki metodologik jihatdan ham muhim: demak, matn, nutq va narrativni tahlil qilish orqali shaxs psixologiyasi, ijtimoiy pozitsiyasi va madaniy identiteti haqida chuqur ma'lumot olish mumkin.

Ertaklarning kognitiv jarayonlarga ta'siri (Guchchiyeva R., 2025) ko'ra, ertak matnlari murakkab ramzlar, metaforalar hamda syujet tuzilmasini o'z ichiga oladi. Ularni tinglash jarayoni diqqatni jamlashni kuchaytiradi, chunki voqealar rivojini kuzatish barqaror e'tiborni talab etadi. Shu bilan birga, qahramonlar va voqealarni eslab qolish xotira mexanizmlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ertak va hikoya asosidagi ishlar xorijiy til o'qitish metodikasida ham keng qo'llanmoqda. Bunda ertaklar autentik, esda qolarli, ritmik va obrazli material sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotlar storytelling usullarining til o'rganayotganlarda so'z boyligi, og'zaki ifoda,

tinglab tushunish va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini kuchaytirishini ko'rsatadi. Ertak matni emotsional jihatdan boy bo'lgani sababli o'quvchi undagi til birliklarini quruq mashq sifatida emas, mazmunli kommunikativ voqelik sifatida qabul qiladi. Shu jihatdan ertakterapiya unsurlarini chet til darslarida qo'llash kommunikativ kompetensiya va emotsional ishtirokni bir vaqtda faollashtiradi.

Bundan tashqari, ko'plab psixoterapevtik yondashuvlarda mijozlardan "Sevimli ertagingiz qaysi?", "Qaysi qahramonni o'zingizga yaqin his qilasiz?" kabi savollar beriladi yoki ertak syujeti va ma'nosi izohlanadi (G'o'chchiyeva R., 2025) ertaklar turli madaniyatlar orasidagi umumiy va farqli qahramonlik modellari, qadriyatlar va til ifodalarini taqqoslash imkonini beradi. Natijada o'quvchi nafaqat tilni, balki o'sha til ortidagi madaniy mantiqni ham anglay boshlaydi. Bu holat zamonaviy interkultural kommunikatsiya uchun muhimdir. Demak, ertakterapiya va ertak asosidagi yondashuvlar jahon tilshunosligida amaliy, pedagogik va diskursiv ahamiyatga ega bo'lgan ko'p qatlamli hodisadir.

Xulosa qilib aytganda, ertakterapiya jahon tilshunosligida ko'p qirrali ilmiy ahamiyatga ega. Birinchidan, u tilning narrativ tabiatini ochib beradi va ma'no yaratish mexanizmlarini chuqurroq tushuntiradi. Ikkinchidan, psixolingvistika nuqtai nazaridan ertak va hikoya bilan ishlash bolalar nutqi, lug'at boyligi, grammatik ko'nikmalar va matnli tafakkurni rivojlantiradi. Uchinchidan, lingvokulturologik jihatdan ertaklar madaniy kodlar, metaforalar va timsollar orqali xalq dunyoqarashini ifodalaydi. To'rtinchidan, diskurs tahlili doirasida ertakterapiya identitetni til vositasida qayta qurish va shaxsiy tajribani yangi ma'noda talqin etish imkonini beradi. Nihoyat, u xorijiy til o'qitish, kommunikativ kompetensiya va interkultural muloqotda ham samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, ertakterapiya bugungi jahon tilshunosligida til, madaniyat, psixika va ijtimoiy tajribaning o'zaro aloqasini tushuntiruvchi dolzarb hamda istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Channell, M. M. (2015). Narrative language competence in children and adolescents with Down syndrome. PMC.
2. Demir, Ö. E., Levine, S. C., Goldin-Meadow, S. (2013). Narrative Processing in Typically Developing Children and Children with Early Unilateral Brain Injury. PMC.
3. Guchchiyeva, R. (2025). The significance and impact of art therapy and fairy tale therapy in the development of children and adolescents with psychosocial problems. *International Conference on Science, Education & Law*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17505198>
4. G'o'chchiyeva, R. (2025). *Psychological aspect of fairytale therapy in linguistics*. *Word of Philology*, 4(3).
5. Pauls, L. J. et al. (2021). Cognitive and linguistic effects of narrative-based language intervention in children with Developmental Language Disorder. PMC.